
Tashabbus samarasida “Oqtepa” mahallasida elektr energiyasi ta’minoti ham yaxshilanmoqda

“Tashabbusli byudjet” loyihasi fuqarolarning ijtimoiy faolligini oshirish va joylardagi muammolarni qisqa muddatda hal etishning manzilli yechimi sifatida xizmat qilmoqda.

Avval xabar berilganidek, dasturning joriy yilgi birinchi mavsumida Qo’shtepa tumanidagi birgina “Oqtepa” mahalla fuqarolar yig’inida elektr ta’minotini yaxshilash va hududdagi 13-umumiy o’rta ta’lim maktabidagi katta o’yingohni zamonaviy, barcha sharoitlarga ega o’yingohga aylantirish bilan bog’liq ikkita taklif g’olib deb topilgan.

Dastlabki g’olib tashabbus ijrosi doirasida mahalladagi Nayman ko’chasida elektr ta’minotini yaxshilash bilan bog’liq loyiha doirasidagi ishlar “Farg’ona qurilish invest” MCHJ tomonidan amalga oshirilmoqda.

Loyihaga ko’ra mahallaga 7,1 km uzunlikda yangi elektr uzatish tarmoqlari tortish ishlari jadal sur’atlarda olib borilmoqda. Xozirgi kunda 261 dona temir beton tayanchlari o’rnatildi. 6,5 km tarmoq qurilib, 4 dona yangi transformator punktlari o’rnatildi.

Loyihaga ko’ra qurilish ishlari yakunlanib yangi qurilmalar ishga tushirilsa, 5 mingdan ziyod iste’molchilarning elektr ta’minoti yaxshilanishiga erishiladi.



2024-11-13 10:20:17